

SHASHMAQOM NASR BO‘LIMIDAGI MURAKKAB ASHULA YO‘LLARINI IJRO ETISH USHLUBLARI



Muhabbat Salihova

“Maqom xonandaligi” kafedrası dotsenti
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-05-07>

Annotatsiya: Kuylash san’ati inson ruhiyatining faoliyati bilan izohlanib kelingan. Ovoz talqinidan olinadigan ma’naviy ozuqaning sarhadlari bo‘lmagan, cheksiz sirli, ta’sirli xususiyatga egaligi bilan qadrlanib kelingan. Buyuklikka erishgan xalqning milliy ma’naviy merosi buyuk bo‘lgan. Xalqimizning boy mumtoz musiqa merosi bunga yaqqol misoldir. Ushbu maqolada Shashmaqom Nasr bo‘limidagi murakkab ashula yo‘llari ijro uslublari haqida fokr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Shahmaqom, milliy meros, ijrochilik, ashula, uslub, jo‘rovozlik.

Аннотация: Искусство пения всегда объяснялось деятельностью человеческой психики. Духовная пища, получаемая от интерпретации голоса, ценилась за свой безграничный, таинственный и впечатляющий характер. Национальное духовное наследие народа, достигшего величия, всегда было великим. Ярким тому примером является богатое классическое музыкальное наследие нашего народа. В данной статье рассматриваются стили исполнения сложных песенных путей в разделе «Шашмаком Наср».

Ключевые слова: Шашмаком, национальное наследие, исполнительство, песня, стиль, джоровозлик.

Abstract: The art of singing has always been explained through the activity of the human psyche. The spiritual nourishment derived from the interpretation of voice has been valued for its boundless, mysterious, and impressive nature. The national spiritual heritage of a people who have achieved greatness has always been great itself. A vivid example of this is the rich classical musical heritage of our people. This article examines the performance styles of complex song paths in the “Shashmaqom Nasr” section.

Keywords: Shashmaqom, national heritage, performance, song, style, jorovozlik.

Maqomlar Markaziy Osiyo musiqa madaniyatining yuzaga kelishida, shakllanishida asosiy manba vazifasini o‘tab kelgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki uning noyob ohanglari, dilkash navolari va chuqur mazmunli she’riy matnlari inson ruhiyatiga ozuqa beruvchi manba ekanligini qayta-qayta ta’kidlash mumkin. XX asrda maqomchilik san’ati rivoji milliy negiz bilan uyg‘unlashgan holda yanada taraqqiy topdi. O‘zbekistonda “Shashmaqom”ning yangi milliy udumlari paydo bo‘lishi ham serqirra maqom an’alarini nafaqat saqlanishi va himoya qilinishi, balki yanada yuksalishiga olib keldi. “Asrlar davomida ulug‘ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, - deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev - ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san’at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta hurmat va e’tibor qozongan. Maqom san’atining gultoji “Shashmaqom” YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e’tirof etilgani hamda uning Reprerentativ ro‘yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig‘idir”.

O‘zbek mumtoz musiqasi, birinchi navbatda, kishiga ruhiy yengillik baxsh etish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, kishining tashqi dunyosiga estetik munosabatda bo‘lishini shakllantiradi, uchinchi tomondan esa tarbiyaviy ta’sir vazifasini ham bajaradi. Har bir musiqa

asarining kishi ruhiyatiga ta'siri va turli his-tuyg'ular uyg'ota olish xususiyatlarini qadim davrlarda yashab o'tgan olimlar o'zlarining musiqa san'atiga doir asarlarida batafsil tahlil qilganlar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Darvish Ali Changiylar maqomlar va umuman, mumtoz musiqaning kishilarga ta'sirini o'rganishgan. Maqom, uning sho'balari va qismlari insonga turlicha ta'sir qilishini uqtirib o'tishgan. Ushshoq, Navo, Husayniy, Iroq, Dugoh, Buzruk kabi jozibador va ohangdor maqom yo'llari nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yaqin va O'rta Sharq xalqlari musiqa madaniyatidan o'rin olib, mashhur bo'lgan. Shu bois, o'zbek mumtoz musiqasi minglab yillar davomida shakllanib, sayqal topib, badiiylashib, yuksak pog'onalarga ko'tarilgan va xalqning madaniy-ma'naviy boyligiga aylangan. Bu albatta asrlar osha shakllanib rivoj topgan ijrochilik an'alarining betakror mezonlari, rang-barang uslublari, tarannumining sirli dunyosi bo'lsa ajab emas.

Ijrochilik, albatta musiqaning jonli jarayonini ta'minlab beruvchi, ijod mezonlarini shakllantiruvchi, tafakkurni ilhomlantiruvchi va eng muhimi musiqaning badiiy va estetik jihatlarini namoyon etuvchi jarayonni ta'minlab beradi. Sharq xalqlarining musiqa san'atida ijrochilik madaniyati asrlar davomida mukammallashib bordi. Ijro amaliyotining namunalari (aytim yo'llari) xalq orasida, og'zaki an'anada og'izdan-og'izga, ustozdan shogirdlarga o'tib mustahkamlanib kelgan. Ijrochilik amaliyoti o'ziga kerak bo'lgan barcha xususiyatlarni, texnik jihatlarini va albatta tabiiy xudodod ne'matlarni yillar davomida kashf etib, ijrochilik talqini sinovlaridan o'tkazib, mukammallashib, haqiqiy milliy qadriyatlar va an'alar sifatida xalqimiz ma'naviy dunyosida muhrlangan. Har bir xonanda tinglovchi qalbiga yetib boruvchi mukammal ijroni tarannum etishi uchun har bir kuylash jarayonini maromiga yetkazgan holda talqin etishi bilan izohlanadi. Bunga erishish uchun ham sozanda va xonandalardan azaldan ma'lum imkoniyatlari mavjudligi, iste'dodi, bilimi va ijro talqini talab etilgan. Xususan: keng diapazonli ovozga, xonandalik qobiliyatiga, musiqa cholg'usida mahorat bilan chalish mahoratiga yega bo'lish; sharq she'riyati va musiqa qonuniyatlarini bilish, xotira, badihago'ylikka moyilligi hamda ma'lum an'ana va o'ziga xos mahorat maktablari namoyandasi bo'lishni talab etiladi. O'zbek mumtoz musiqa san'ati ta'limi o'ziga xos, ya'ni "ustoz-shogird" an'anasiga asoslangan. Hozirgi zamonaviy ta'limning ham asl negizi aynan ustoz-shogird an'alarining zamon va makon shaklida rivojlanish bosqichlariga asoslanganligini e'tirof yetishimiz mumkin.

Har bir mumtoz musiqa yo'nalishi shakl va ijrochilik nuqtai nazaridan o'z uslubi, qonun-qoidalari, shaklu-shamoyillariga egadir. Ular orasida mumtoz xususiyatlar doirasida shakllangan va eng mukammal an'analarni o'zida aks ettirgan an'anaviy ijrochilik o'zining barcha uslubi, nufuzi va salohiyati bilan ibrat bo'lib kelmoqda.

An'anaviy mumtoz ijrochiligining xonandalik sohasi bilimdon ijrochi san'atkorlar orasida keng ommalashgan. Ular ko'p yillar davomida janr tarkibi jihatidan keng qamrovliligi, ijro uslubi va usullarining turlanishi, joy va makon an'alarining ahamiyati negizida o'zlashtirilib rivojlantirib borildi. Natijada mahalliy va shaxsiy xususiyatlar bilan xarakterlanuvchi taqlid va talqin uslublari, keyinchalik ijrochilik mahorat maktablari, masalan, Marg'ilon va Qo'qon katta ashula maktablari, Buxoro yoki Xorazm maqomchilik maktablari, shu bilan birga o'z ijrolari bilan dong taratgan yetuk ijrochilar nomlari (Sodirxon hofiz, Mamadbuva Sattarov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov va h.k) bilan yuritilgan maktablar yuzaga keldi. Bu an'ana zamonasiga mos holatda faoliyat olib borgan har bir xonandalar tomonidan munosib davom ettirilib, doimiy tarzda azaliy an'analarga asoslangan xonandalik an'analari munosib rivojini topib kelmoqda. Bu ijro an'analari bo'lgan maqom ijrochiligi, qolaversa mumtoz musiqa xonandaligi ijrochilik amaliyotining ibratli jihatlarini ta'lim jarayonida dasturi amal sifatida qo'llanilib kelinayotganini e'tirof yetish lozimdir.

Ijroviy malaka va musiqiy meros bir maqsadni amalga oshirishda birdek ahamiyatga ega bo'lgan ikki amaliy mashg'ulotdir. Xonandaning ijroviy malakasi avvalo nazariy va uslubiy mashqlarga tayansa, uning amaliy jarayonida musiqiy merosni o'zlashtirish evaziga bosqichma-bosqich kamol topib boradi. Xonandalikni mumtoz darajada egallash xalq musiqasi merosi, xalq

mumtoz musiqa merosi va umumbashariyat xonandalik an'analarini qay darajada o'zlashtirish darajasi bilan xarakterlanadi.

Xonandaning musiqiy merosni to'laqonli anglashi va ijroviy malakasi mumtoz musiqiy namunalarni (ayniqsa maqomlarni) g'oyaviy-badiiy mazmuni, mahalliy va shaxsiy uslublarni hamda tarkibiy shakllarini uyg'unlikda talqin etishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ijro texnikasi va ularni milliy-badiiy bezaklar bilan me'yorida talqin etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xonandalik amaliyoti ijrochining texnikasi, idroki, bilim va talqin etish, badiha va xotira kabi kasbiy unsurlarini doimo rivojlantirib boradi. Ayniqsa, jo'rovoqlik amalida bu xususiyatlar yanada keskin tus olib ijro mahoratini o'sishiga hamda tafakkurining rivojiga ta'sir etadi. Jo'rovoqlik san'ati xonandadan nafaqat shaxsiy ijroviy unsurlar, balki hamnafasining barcha xususiyatlarini o'zlashtirishi va mutanosib holda talqin etishga o'rgatadi. Bunda eng asosiy mezonlar hamnafaslarning ruhiy holati, nafas mezonlari, asarni bilish darajasi, ijro uslubini o'rganilishi, milliy qochirim va bezaklarni, shu bilan birga asar dinamik tuzilmalarini tushunish-idroklash mezonlarining mutanosibligini saqlash bilan xarakterlanadi.

Shu bois xonandalikdagi kuylash mezonlari har bir ovoz sohibidan yuqorida keltirilgan umummusiqiy jihatlarga ega bo'lish, bilish va rivojlantirishni talab etadi. Xonandalik kasbiga bunday munosabatlarning pirovardida sog'lom, tarbiyali, toza, bilimdon va mohir kasb egasi bo'lish muqarrar.

Navbatdagi o'rganadigan asar Husayniy Dugoh turkum ashulalaridir. Maqom xonandalari Husayniy Dugoh turkum ashulalari ijrosini o'zlashtirish jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratishlari tavsiya etiladi:

1. Husayniy Dugoh turkum ashulalari Saraxbor ashulalar turkumiga o'xshash salobatlik xususiyatiga xos;
2. Husayniy Dugoh ashulalar turkumidagi asarlarning tovushqatori va unga xos pardalarini o'zlashtirish;
3. Husayniy Dugoh ashulalar turkumidagi asarlarning takt o'lchovini bilish hamda unga mos doira usulini o'zlashtirish;
4. Husayniy Dugoh ashulalar turkumining kuy jumalari, doira usuliga e'tibor qaratish hamda kuyni yod olishda undan oqilona foydalanish;
5. O'rganilayotgan asarning nota hamda g'azal matnlarini uyg'unlikda o'zlashtirish shuningdek, o'rganishning boshlang'ich jarayonlarida nota matniga asoslanish;
6. Asarning nota matni bilan yetuk maqom ijrochilarining ijro variantlaridagi juz'iy farqlarni anglash;
7. Husayniy Dugoh ashulalar turkumidagi namudlar va avjlar ijrosiga alohida e'tibor berish;
8. Asarni badiiy talqin etishni ta'minlash uchun uning ohangini to'la his etish va g'azalining ma'nosini chuqur anglashga e'tibor qaratish lozim.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Dillarni dillarga, ellarni ellarga payvand etadigan san'at. Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. "Xalq so'zi", 2018-yil, 7-sentabr.
2. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning ta'rixi. - Toshkent: Fan, 1993
3. Matyoqubov O. Maqomot T., 2004y
4. Matyoqubov O, Boltayev R., Aminov H. O'zbek notasi (Xorazm tanbur chizig'ini asosida Dutor maqomi namunalari) T., 2009.
5. R.Qosimov - An'anaviy rubob ijrochiligi O'zbekiston 2000.